

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

YUVASHOV SHERZOD ULMASOVICH

**O‘QUVCHILARDA ALTRUISTIK FAZILATLARNI RIVOJLANTIRISH
TEXNOLOGIYASI (“TARBIYA” FANI MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертациидоктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Yuvashov Sherzod Ulmasovich

O'quvchilarida altruistik fazilatlarni rivojlantirish texnologiyasi
("Tarbiya" fani misolida) 3

Yuvashov Sherzod Ulmasovich

Технология развития альтруистических качеств у учеников (на примере
дисциплины «Воспитание») 23

Yuvashov Sherzod Ulmasovich

Technology for the development of altruistic abilities in students
(for example, the subject "Education")..... 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published work 47

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

YUVASHOV SHERZOD ULMASOVICH

**O‘QUVCHILARDA ALTRUISTIK FAZILATLARNI RIVOJLANTIRISH
TEXNOLOGIYASI (“TARBIYA” FANI MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Ped2914 aqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan muhandislik-qurilish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.nammqi.uz) va "ZiyoNyet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Asqarova O'g'ilxon Mamashakirovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Matjonov Sapa Murodovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Nafasov Doniyor Shernafasovich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «1» 05 kuni soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy.). Tel.: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41; e-mail: chdpu_kengash@umail.uz.

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (216 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-27-55; faks: (99870)712-45-41.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «25» 04 kuni tarqatildi.
(2023-yil «25» 04 dagi 76 raqamli reyestr bayonnomasi).



U.N.Xodjamqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, p.f.d. (DSc), dotsent

F.T.Rajabov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, g.f.f.d. (PhD), dotsent

Sh.I.Botirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, p.f.d.
(DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda tobora jadallashib borayotgan axloqiy “inqiroz” yoshlarda altruistik¹ fazilatlarni rivojlantirishni, ularda jo‘mardlik va oliyjanoblikka asoslangan ijtimoiy faollikni, yurtga sadoqat va shaxsiy mas’uliyatni oshirishning ilmiy-pedagogik yechimlarini ishlab chiqishni talab etmoqda. Ayni paytda rivojlangan mamlakatlarning maktab ta’limida o‘quvchilarda yuksak axloqiylik, insonparvarlik va altruistik fazilatlarni rivojlantirishning yangicha modellarini yaratishda innovatsion mexanizm va texnologiyalarni qo‘llashga doir ko‘plab amaliy ishlar qilinmoqda. Zero, kapitalsitik munosabatlar rivojlanayotgan, inson kapitali ham “sotilayotgan”, qadri-qimmatini u keltirayotgan foyda bilan o‘lchanayotgan, bozor qonuniyatlari insoniy munosabatlarga ham ko‘chayotgan bir sharoitda insoniylikni saqlab qolish, buning uchun altruistik fazilatlarni rivojlantirish yo‘llarini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida va xalqaro ilmiy tadqiqot markazlarida yoshlarda, ta’lim oluvchilarda insoniylikni, oliyjanoblikni, o‘z manfaatidan voz kechib o‘zgaralar uchun ham yashaydigan, ularga beg‘araz yordam ko‘rsatadigan, xudbinona istaklarini nazorat qiladigan axloqiy dunyoqarashni va u asosida axloqiy madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik tizimiga doir fundamental izlanishlar olib borilmoqda. Dunyo ilm-fani taraqqiyotida o‘quvchilarning ijtimoiy-ma’naviy faolligini oshirishda altruizm tamoyillarini ishlab chiqish va unga tayanish masalasi ijtimoiy fanlarning muhim pragmatik muammosi sifatida tadqiq etilmoqda. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar tomonidan jamiyatlarda yuksak axloqiylikni shakllantirishga doir amaliy ishlar ham olib borilayotgani bugungi kunda jahonda insoniy munosabatlarni yuksaltirish zaruratini ko‘rsatib beradi.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida jamiyatda yuksak axloqiy munosabatni shakllantirishga doir ko‘plab ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar va ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlar orqali o‘quvchilarda altruistik fazilatlarni rivojlantirish, buning uchun “ajdodlarimiz faoliyatida alohida o‘rin egallagan altruizmi jonli misollar yordamida o‘quvchilarga singdirib borish”² dolzarblik kasb etmoqda. Shuningdek, “bugungi kunda dunyoning juda ko‘p mintaqalarida insoniy qadriyatlar yemirilmoqda. Ayniqsa, pandemiya sharoitida ayrim o‘lkalarda betoqatlik, tajovuzkorlik kayfiyatlari kuchayib bormoqda. Mana shunday keskin vaziyatda, ulug‘ mutafakkirlar aytganidek, dunyoni ezgulik, mehr-shafqat, insoniylik qutqaradi”. Mazkur ishlar maktab ta’limida mavjud “Milliy g‘oya”, “Odobnoma”, “Din tarixi” va “Vatan tuyg‘usi” fanlari uyg‘unligida ishlab chiqilgan “Tarbiya” fani³ asosida olib borilishi, buning uchun innovatsion ta’lim

¹ Altruizm – axloqiy tushuncha bo‘lib, insonning o‘z manfaatlaridan voz kechib, boshqalar manfaati, baxt-saodati yo‘lida beg‘araz xizmat qilishini anglatadi. Bu tushuncha Sharqda jo‘mardlik atamasi bilan bir necha asr avval qo‘llanilgan. Altruizm shaxsning ma’naviy jihatdan o‘z-o‘zini baholashi, xudbinlikdan voz kechishini bildiradi.

² Pedagogika. Ensiklopediya. 1-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” DAN, 2015. –B. 54

³ Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-tom. –Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – B.155

metodikasi va texnologiyasini ishlab chiqish muhim ijtimoiy talab hisoblanadi. Zero, “yurtimizda yashayotgan turli millat va elat vakillari o‘rtasida do‘stlik va totuvlik muhiti, o‘zaro hurmat va hamjihatlikni asrash va mustahkamlash maqsadida olib borayotgan ishlarimizni yanada kuchaytirish”⁴ uchun “Tarbiya” fani asosida o‘quvchilarda altruistik fazilatlarni rivojlantirishning pedagogik tizimini ishlab chiqish ustuvorlik kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi “Professional ta‘lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17- sentyabrdagi “Ta‘lim tizimida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 736-son Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori, shuningdek, mazkur faoliyatga taalluqli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Altruizm kategoriyasining falsafiy mazmun-mohiyati, shakllanish bosqichlari va mutafakkirlar tomonidan tahliliga doir ko‘plab izlanishlar olib borilgan. Biroq pedagogika fanlari doirasida altruistik fazilatlarni rivojlantirishga doir tadqiqotlar yetarli emasligi kelib chiqdi.

Xususan, falsafa fanlari doirasida altruistik fazilatlar, jo‘mardlik, oliyjanoblik va insoniylikka doir izlanishlar V.Alimasov, Q.Nazarov, E.Karimova, I.Saifnazarov, A.Ochildiyev, S.Mamashokirov, M.Xajiyeva, M.Sharifxo‘jayev, A.Erkayev, S.Olimov, O.Bazarov kabi olimlar tomonidan olib borilgan.

Pedagogika fanlari doirasida yuksak axloqiy fazilatlarni rivojlantirishning ta‘limiy asoslari bo‘yicha tadqiqotchi olimlar M.Quronov, G.Akramova, G.Aripova, A.Ro‘zmetov, O.Jamoldinova, S.Usmonov, Sh.A.Abdullayeva, N.Shodiyev, J.Toshmatova, Z.Xojageldiyeva, Z.Kurbaniyazova, R.Aripova, Sh.Akramovalar tomonidan olib borilgan.

⁴Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –Toshkent: O‘zbekiston. 2017, 1-tom. – B.37.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarining ilmiy tadqiqot markazlarida ham yuksak axloqiy fazilatlar, jo'mardlik va oliyjanoblikka doir fundamental tadqiqotlar olib borilgan va bugungi kunda ham davom ettirilmoqda. Altruistik fazilatlarni tadqiq etgan olimlar qatoriga A.Frolov, V.Kinelev, I.Kosova, B.Azarov, L.Vigotskiy, S.Rubinshteyn, V.Bespalko, A.Kovalovni kiritish mumkin.

G'arb mamlakatlarida James R.Ozinga⁵, Jacob Neusner⁶, George Herbert Palmer⁷, Robin Gill⁸, Andrew Michael Flescher, Daniel L.Worthen⁹ va boshqalarning tadqiqot ishlarida altruizm kategoriyasining nazariy asoslari, kapitalistik munosabatlar sharoitida jo'mard va oliyjanob bo'lish masalalari o'rganilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan muhandislik-qurilish instituti 310-KB – raqamli “Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirish” mavzusidagi kompleks tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi “Tarbiya” fani asosida o'quvchilarida altruistik fazilatlarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'quvchilarda altruistik fazilatlarni rivojlantirishda ta'limning motivatsion, muhitga moslashish, refleksivlik xususiyatlarini ochib berish;

“Tarbiya” fani asosida o'quvchilarda altruistik fikrlash tarzini takomillashtirish;

o'quvchilarda egoistik va individualistik xususiyatlarning shakllanishiga qarshi altruistik fazilatlarni rivojlantirish modelini takomillashtirish;

o'quvchilarning refleksiyasi va immunitetini rivojlantirishning pedagogik asoslarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida “Tarbiya” fani asosida o'quvchilarda altruistik fazilatlarni rivojlantirish jarayoni tanlangan.

Tadqiqotning predmeti o'quvchilarda altruistik fazilatlarni “Tarbiya” fani asosida rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonning mazmuni, shakl, vosita, usullari va omillarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, analitik tahlil, analiz va sintez, modellashtirish, suhbat, so'rovnomalar, monitoring, intervyu, tajriba-sinov, test hamda matematik-statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'quvchilarda altruistik fazilatlarni rivojlantirishda ta'limning motivatsion, refleksiv va muhitga moslashish xususiyatlari emotsionallik va aqliy yondashuvlar uyg'unligining obyektiv, subyektiv hamda pedagogik omillarga ta'sir darajasi

⁵ James R. Ozinga. Altruism. – London: Praeger, 1999.

⁶ Jacob Neusner. Altruism in World Religions. – Washington D.C.: Georgetown University Press, 2005.

⁷ Palmer, George Herbert. Altruism: its Nature and Varieties. – Westport: Greenwood Press, 1970.

⁸ Gill, Robin. Churchgoing and Christian Ethics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999.

⁹ Flescher, Andrew Michael and Worthen, Daniel L. The Altruistic Species: Scientific, Philosophical, and Religious Perspectives of Human Benevolence. – Philadelphia and London: Templeton Foundation Press, 2007.

barqarorligining zamonaviy pedagogik paradigmalarga muvofiqligini ta'minlash asosida aniqlashtirilgan;

o'quvchilarda altruistik fikrlash tarzini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari fikr yuritishning motivatsion, refleksivlik va operatsion ko'nikmalarini altruistik xulq-atvorning yo'naltiruvchi, emotsional barqarorlik va mazmunli komponentlariga mazmunan va progressiv monitoringli qo'llash orqali moslashtirish asosida takomillashtirilgan;

o'quvchilarda altruistik fazilatlarni rivojlantirishning tashkiliy-funksional modeli tarbiyaning rivojlantiruvchi maqsadiga ko'ra refleksiv yondashuvning yaxlitlik, o'zaro aloqadorlik, subyektivlik, o'z-o'zini aks ettirish tamoyillarining pedagogik-psixologik fanlarni o'qitish imkoniyatlariga to'g'ri proporsional aloqadorlikka egaligini hisobga olish asosida takomillashtirilgan;

o'quvchilarning refleksiyasi va immunitetini rivojlantirishning pedagogik asoslari altruistik fazilatlarni rivojlantirishda emotsional-obrazli, intellektual-ijodiy, refleksiv ko'nikmalarni tarbiya tamoyillariga muvofiq shakllantirish va korreksion-rivojlantiruvchi tavsifga ega auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi aniq maqsadlarga yo'naltirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi o'quvchilarda altruistik fazilatlarni rivojlantirishga doir ilmiy-nazariy yondashuvlar, qarashlar va g'oyalar, jahon tajribasi o'rganilganligi, o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot usullari, metodik ta'minot amaliyotga joriy etilganligi, tajriba-sinov ishlari reprezentativligi, matematik-statistik tahlil tadqiqot samaradorligini tasdiqlaganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'quvchilarda altruistik fazilatlarni rivojlantirishga doir ta'lim mazmuni takomillashtirilganligi, "Tarbiya" fani asosida ishlab chiqilgan innovatsion texnologiya, interfaol metod, shakl va vositalarni qo'llashga doir tavsiyalar, ularning tajriba-sinovdan o'tkazilganligi, taklif etilgan pedagogik tizimning samaradorligi aniqlanganligi, nazariy yondashuvlar, pedagogik andoza, qarashlar va g'oyalar joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan xulosa, taklif va tavsiyalar "Tarbiya" fanini o'tish texnologiyasini takomillashtirishga, o'quv va ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga yangicha yondashuvlar joriy etishga, soha mutaxassislari, o'qituvchilar, ota-onalar, yoshlar, tadqiqotchilar o'z amaliy faoliyatlarida foydalanishlari mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

O'quvchilarda altruistik fazilatlarni rivojlantirish texnologiyasi yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

oila va sotsium hamkorligi omillarini tizimli tahlil etish va ratsional boshqarish asosida aniqlashtirilgan o'quvchilarda altruistik fazilatlarni rivojlantirishda ta'limning motivatsion, refleksiv va muhitga moslashish

xususiyatlari, fikr yuritishning motivatsion, refleksivlik va operatsion ko'nikmalarini altruistik xulq-atvorning yo'naltiruvchi, emotsional barqarorlik va mazmunli komponentlariga kognitiv moslashtirish asosida takomillashtirilgan o'quvchilarda altruistik fikrlash tarzini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari bo'yicha taklif va tavsiyalardan 2020-2021-yillardagi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tadbirlar rejasining metodik asoslarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2021-yil 22-dekabrda sentyabrdagi 02/02/1713-raqamli dalolatnomasi). Natijada, o'quvchilarda altruistik fazilatlarni rivojlantirishda ta'limning motivatsion, muhitga moslashish, refleksivlik xususiyatlarini ratsional boshqarish, oila va sotsium hamkorligi omillarini tizimli tahlil etish orqali ochib berilgan;

refleksiv yondashuvning yaxlitlik, o'zaro aloqadorlik, subyektivlik, o'z-o'zini aks ettirish tamoyillarining pedagogik-psixologik fanlarni o'qitish imkoniyatlariga to'g'ri proporsional aloqadorlikka egaligini hisobga olish asosida takomillashtirilgan o'quvchilarda altruistik fazilatlarni rivojlantirishning tashkiliy-funksional modeli hamda o'quvchilarda altruistik fazilatlarni rivojlantirish texnologiyasi bo'yicha takliflar Namangan, Andijon, Farg'ona viloyatlaridagi umumta'lim maktablarida amaliyotga joriy etilgan va "Uzliksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Respublika ta'lim markazining 2022-yil 5-sentyabrdagi 01/11-02/02-1409-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, o'quvchilarda altruistik fazilatlarni rivojlantirish texnologiyasi bo'yicha ilmiy fikr mulohazalar, taklif va tavsiyalar konsepsiyaning nazariy-metodologik jihatdan takomillashuviga xizmat qilgan;

altruistik fazilatlarni rivojlantirishda emotsional-obrazli, intellektual-ijodiy, refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va korreksion-rivojlantiruvchi tavsifga ega auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni aniq maqsadga yo'naltirish asosida takomillashtirilgan o'quvchilarning refleksiyasi va immunitetini rivojlantirishning pedagogik asoslari bo'yicha natijalardan umumta'lim maktablarida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasini takomillashtirish O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi umumta'lim maktablari ta'lim va tarbiya ishlarini tashkil etish jarayonida foydalanilgan (Respublika ta'lim markazining 2022-yil 5-sentyabrdagi 01/11-02/02-1409-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, o'quvchilarda altruistik fazilatlarni rivojlantirish texnologiyasi bo'yicha ilmiy-metodologik ta'minot boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 5 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 17 ta maqola, shundan, 12 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, hajmi 120 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, obykti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O'quvchilarda altruistik fazilatlarni rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida o'quvchilarda altruistik fazilatlarni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati, “Tarbiya” fani orqali o'quvchilarida altruistik fazilatlarni rivojlantirish tizimining amaliyotdagi holati va xorijiy tajribalar tahlili tadqiq etilgan.

Bugungi kunda jahonda egoistik sifatlarni kuchayib ketishi, individualizm xarakterini yoyilishi jamiyatlar oldiga yangicha vazifalarni yuklamoqda. Insonlarda xudbinlik bilan bog'liq hususiyatlarning shakllanishi va faqat o'zini o'ylaydigan yoshlarni ulg'ayishi jarayoni bilan insoniyat oldidagi global ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Bunday vaziyatda har bir jamiyatda altruistik sifatlarga ega yoshlarni tarbiyalash va umuman olganda, ta'lim-tarbiya jarayonini isloh qilish, uni bugungi kun talablariga moslashtirish, kapitalistik munosabatlar sharoitida egoist insonlarni shakllantiruvchi normalarni qayta ko'rib chiqish vazifalari ustuvorlik kasb etmoqda. Zero, “dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir”. Shunday ekan, O'zbekistonda ham ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish jarayonida uzluksiz ta'lim tizimiga ta'lim olivchilarga yuksak axloqiy sifatlarni ham shakllantirishga qaratilgan vazifalarni ham yuklash, jo'mardlik sifatlarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayonga alohida e'tibor qaratish vazifalari yuzaga kelmoqda.

Tadqiqot ishi o'quvchilarda altruistik fazilatlarni rivojlantirishga qaratilganligini hisobga olib, altruizm kategoriyasi, altruistik fazilatlarning mazmun mohiyati, lug'atlarda tariflanishi va shakllanish evolyutsiyasi to'g'risida tahlillarni keltirishni maqsadga muvofiq hisoblanadi

Pedagogika lug'atida altruizm tushunchasiga quyidagicha tarif beriladi: “Altruizm – axloqiy tushuncha, insonning o'z manfaatlaridan voz kechib, boshqalar manfaati, baxt-saodati yo'lida beg'araz xizmat qilishini anglatadi. Bu tushuncha Sharqda jo'mardlik atamasi bilan bir necha asr avval qo'llanilgan. O'rta

asrlarda Sharq xalqlarida jo‘mardlik insonparvarlik va vatanparvarlikni targ‘ib qiluvchi tasavvuf tariqatlaridan biri sifatida o‘zining falsafiy, tarbiyaviy asosiga ega bo‘lgan. Altruizm shaxsning ma‘naviy jihatdan o‘z-o‘zini baholashi, xudbinlikdan voz kechishini bildiradi”¹⁰. Demak, altruizm tushunchasi xudbinlikka qarshi ahloqiy sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilganligi kelib chiqadi. Bu orqali insonlarda o‘zgalar uchun ham yashash, ularga nimadur bera olish istagini shakllantirish, mehr-muruvvatli, oliyjanob avlodni tarbiyalash mumkin bo‘ladi.

Falsafa qomusiy lug‘atda altruizm tushunchasi “(frans. Altruisme, lot. Alter – boshqa) – egoizmga qarshi axloqiy prinsip bo‘lib, u boshqa kishilarga beg‘araz xizmat qilishdan, ularning baht-saodati uchun o‘z shaxsiy manfaatlarini qurbon etish” sifatida tariflanadi. Shuningdek, yana “altruizm tushunchasi, odatda, yaqinlarga, mehr-muhabbat bilan qarash, odamlarning xatolarini kechirish, o‘zining qadr-qimmatini chetlab o‘tib, o‘y-fikr va xatti-harakatini boshqalar hayotiga bag‘ishlash, o‘zini tamomila unitishni anglatadi. Altruizmga ko‘ra, “boshqalar uchun yasha” – bu ibora kelajakda axloqiy talabning epigrafi bo‘lib qolmog‘i kerak”¹¹. Mazkur tariflanish buguni kapitalistik munosabatlar davrida, bozor iqtisodiyoti sharoitida yo‘qolib borishi tabiiy holat sifatida baholanayotgan, jamiyatlarda xudbinona dunyoqarash shakllanayotgan pallada juda muhim talab ekanligi namoyon bo‘ladi. Zero, “Tarbiya” fanini o‘qitish orqali o‘quvchilarda altruistik fazilatlarini shakllantirish ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda.

Altruizm tushunchasining mazmun-mohiyatini anglashda, unga aloqador bo‘lgan boshqa bir tushunchalarning mohiyatiga e‘tibor qaratish ham maqsadga muvofiq bo‘ladi. Quyida altruizm tushunchasining mohiyatini kengroq ochib beruvchi “egotsentrizm”, “eskapizm” va “daunshifting” kabi tushunchalarni mohiyatini ochib berishga harakat qilamiz.

Egotsentrizm – manmanlik va xudbinlik (egoizm)ning yuqori darajasi bo‘lib, u shaxsning faqat o‘z qiziqish doirasida bog‘lanib qolishi, boshqalarning fikri bilan hisoblashmay, faqat o‘z fikrlari va shaxsiyatini yuqori qo‘yishidan iborat xislati. Mazkur qarashga bandi bo‘lgan yoshlarda oilaga, jamiyatga ijtimoiy mas‘uliyati yo‘qoladi. Egotsentrizm orqali insonning shaxsiyati mutloqlashtiriladi va o‘zidan boshqaning qiziqishlari, qarashlari, “men”i hurmat qilinmaydi. Bugungi kunda egotsentristik qarashlar bilan bog‘lanib qolgan yoshlar jamiyat va vatan oldidagi vazifasini unutmoqda, fidoyilik va sadoqatlik yo‘qolib bormoqda. Shu bois bunday illatlarga qarshi g‘oya bilan – yoshlarda altruistik fazilatlar, ya‘ni “o‘zgalar uchun yashash” tamoyili asosida tarbiya berish vazifalari shakllanmoqda.

Eskapizm tushunchasi odamning kundalik hayotdan o‘z xayollari dunyosiga bosh olib ketishini anglatadi. “Odamning real hayotdan qochishi, odamlar bilan kelisha olmasligi ko‘pincha yirik o‘zgarishlar, islohotlar davrida uchraydi. Bu jarayonda odamning uzlatga chekinishi, odamlar orasida yashab turib, jamiyat qadriyatlariga, mamlakat hayotiga qiziqmay, muammolariga befarq, daxldorlik

¹⁰ Pedagogika. Ensiklopediya. 1-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. –B. 54

¹¹ Falsafa qomusiy lug‘at. –Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari MJN. 2004. –B. 22.

hissidan begona, o‘z xayollariga cho‘mib yashashi mumkin”. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi, “Telegram”, “Instagram”, “Tik-tok” kabi tarmoqlarning ommalashishi orqali yoshlarni vertual olamda kirib ketishi kuchayib bormoqda. O‘z hayotini ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur etolmayotgan, hayotiy missiyalarini unutib qo‘ygan yoshlarni ortib borayotgani unga qashi kurash strategiyalarini ishlab chiqishni dolzarb vazifalardan biriga aylantirdi. Eskapizm ham ijtimoiy tarmoqlarning ta’sirida kuchayib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va internet olami yoshlarni real hayotdan uzoqlashtirmoqda, real hayot qadriyatlarini hurmat qilmaydigan, ijtimoiy mas’uliyatni anglamaydigan yoshlar qatlami shakllanmoqda. Chunki, ijtimoiy tarmoqlarda biror narsani qadrlash va uni asrash shart emas. Unga osonlikcha erishish mumkin. Shu bois “Tarbiya” fani orqali o‘zidan, jamiyatdan, milliy qadriyatlardan va ijtimoiy mas’uliyatdan qochayotgan yoshlarni altruistik fazilatlar, jo‘mardlik va oliyanoblik asosida tarbiyalash dolzarb vazifalardandir.

Daunshifting atamasi “o‘zi uchun yashash”, “boshqalar bilan bog‘liq maqsadlarni rad etish” falsafasining maqsadini ifodalaydi. Daunshifterlar jamiyat tomonidan qabul qilingan qadriyatlardan yuz o‘giran, umum manfaatlaridan, jamiyat farovonligi, tinchligi kabi qadriyatlar uchun mehnat qilish o‘rniga o‘zi uchun yashashni ustun qo‘yadi. Mazkur atama ham egoizmning ma’nodoshi hisoblanadi va insonlarga o‘zi uchun yashashni, o‘zini o‘ylashni va o‘zini hurmat qilishni targ‘ib qiladi. Bunday xarakterdigi insonda oiladagi vazifa va oila mas’uliyati yo‘q bo‘ladi. Jamiyatning umumiy maqsadini inkor qilish, o‘z manfaatlarini hamma narsadan, hatto jamiyat manfaatlaridan ham ustun qo‘yish kuzatiladi. Shu bois yoshlarda “o‘zi uchun yashash”ni emas “o‘zgalar uchun ham yashash” ni targ‘ib qilish, oliyanob bo‘lishni tarbiyalash “Tarbiya” fani oldidagi vazifalardan biriga aylanmoqda.

O‘quvchilarda altruistik fazilatlarini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruratini quyidagicha asoslash mumkin:

birinchidan, o‘quvchilarda egoistik sifatlarni kuchayib ketmasligi, xudbinona illatlar ta’siriga tushib qolmaslik va faqat o‘zini o‘ylaydigan, jamiyatga nafi tegmaydigan, fidoyilik va sadoqatlilik tushunchalaridan yiroq kadrlar shakllanishini oldini olishning eng samalari usuli ularda bu illatlarning aksini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik, ta’lim-tarbiya jarayonidir. Demak, o‘quvchilarda jo‘mardlik sifatlarini, o‘zgalarini o‘ylashga, qayg‘urishga, o‘zgalar manfaatini toptamaslik, ustun qo‘yishga qaratilgan fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan tarbiya jarayoni juda kerakli, bugungi zamon talabi va ijtimoiy barqarorlik asosi hisoblanadi. Chunki o‘quvchilarda altruistik sifatlarni shakllantirish orqali ularda jamoaviylik, birdamlik, boshqalar manfaatini o‘zining manfaati bilan mushtaraklikni his qilishi, halollik, vijdonlilik va vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish mumkin bo‘ladi. Shuningdek, faqat o‘zini o‘ylaydigan, xudbin farzandlari bor millatning taqdiri taraqqiyotga dahldor emasligini tarixiy taraqqiyot isbotlab berayotgan vaziyatda jamiyatda yuksak axloqiy fazilatlarini, altruistik sifatlarni shakllantirish dolzarb vazifadir.

Ikkinchidan, bugungi kunda jamiyatimizda korrupsiyaning yuqori nuqtaga chiqishi, korrupsion munosabatlarning rivojlanib borishi, “halol” insonlarni “lo‘x”, “latta” maqomiga ega bo‘lishi, “halol” bo‘lmagan insonlarni “ishni ko‘zini biladigan” inson sifatida maqom olishi, asl axloqiy fazilatlar va qadriyatlarni inkor etilishi zamonida, faqat yulib olish, o‘zlashtirish, ega chiqish va “men”iki bo‘lish harakati avj olib borayotgan bir vaziyatda “o‘zgalar uchun” ham yashaydigan, o‘zgalar, millat, vatan uchun qayg‘uradigan insonlarga talabning ortib borayotganligi altruistik fazilatga ega insonlarga bo‘lgan ijtimoiy talabni oshirib yubormoqda. Bunday vaziyatda uzluksiz ta’lim tizimi oldida yangi bir vazifa ham yuzaga kelmoqda. Ya’ni raqobatbardosh kadrlar, salohiyatli mutaxassislarni tarbiyalash bilan birga ularda halollik, adolatlilik, vijdonlilik va boshqa altruistik fazilatlarni shakllantirish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Uchinchidan, jamiyatda ijtimoiy birdamlikni, hamjihatlikni shakllantirish ta’lim-tarbiya jarayonida, boshlang‘ich ta’limdanoq singdirilgan jamoaviylik, birdamlik, oliyjanob insoniy sifatlarni shakllantirishga bog‘liq bo‘ladi. Zero, “or, nomus, sha’n, qadr-qimmat olomonning bahosi bilan emas, balki munosib, shu xislatlarga ega odamlar bahosi bilan beriladi. Chunki oriyatli odamlar oriyat nimaligini tushunadilar va shuning uchun baho bera oladilar. Mardlikni qadrlay oladilar, Mard, olijanob odamning o‘zi ham uni mard, oliyjanob odamlar baholashini afzal ko‘radi. Yana shunisi borki, oddiy or, nomus emas, balki yuksak darajadagi or, nomus sharaflil hisoblanadi. Shon, sharaf esa ne‘matdir, yana: ne‘matlarning eng a‘lolaridan biridir”¹². Chunki bolada umumiy manfaatlar, jamoaviy kuchni shakllantirish orqali jamoaviy irodani ham sekin-asta shakllantirish mumkin bo‘ladi. Shu bois o‘quvchilarda altruistik fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon jamiyatda ijtimoiy birdamlikni shakllantirishga qaratilgan davlat siyosatining bir bo‘g‘inini tashkil qiladi.

To‘rtinchidan, o‘quvchilarda individualizm bilan bog‘liq sifatlarga qarshi altruistik fazilatlarni shakllantirish dolzarblik kasb etmoqda. Chunki individualizm “men”likni oshib borishi, barcha ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-huquqiy normalarni inkor qilinishi va yolg‘izlikni mutloqlashtirilishiga olib keladi. Natijada oila, jamoa, jamiyatda bo‘linish, parokandalik sodir bo‘lmoqda. Inson uchun oila, nikoh, jamoa manfaatlari, jamiyat normalari qadrsizlanadi va inkor qilinadi. Bugungi kunda globallashtirish jarayonining keng ko‘lam kasb etishi, madaniyatlar muloqotining kengayishi va qadriyatlarning qadrsizlanishi sharoitida O‘zbekistonda individualizmni xarakterini shakllanishiga qarshi yuksak axloqiy sifatlarni, jo‘mardlikni zarurati ortib bormoqda.

Beshinchidan, bugungi global axborot maydonida ijtimoiy munosabatlarda begonalashuv fenomeni keng ko‘lam kasb etib, insonlardagi ijtimoiy yolg‘izlik, begonalik hususiyati ijtimoiy mas’uliyatni, dahldorlik tuyg‘ularini sindirib yubormoqda. Shu bois insoniyat oldida yangi bir muammo – begonalashuvni

¹² Arastu. Axloqi kabir. –Toshkent. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi DAN. 2018. –B. 139.

bartaraf etish va insonlarda hamjihatlik, birdamlik va munosabatlarda birodarlik muhabbatini shakllantirish vazifalari yuzaga chiqmoqda. Buning uchun har bir jamiyatda psixologik ta'sir vositalarini zamonaviylashtirish orqali insonlarni real hayotga qaytarish, munosabatlarda jamoaviylikni shakllantirish kerak bo'lmoqda. Shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonida tarbiyaviy ishlarga yangicha yondashuvlarni olib kirish orqali jamiyatda sodir bo'layotgan ruhiy o'zgarishlarni bartaraf etish, yoshlarni jamiyatdagi vazifalariga to'g'ri yo'naltirish, o'quvchilarda jo'mardlik sifatlarini rivojlantirish zarurligi kelib chiqmoqda.

Oltinchidan, o'quvchilarda kamtarlik, oliyjanoblik, mardlik, sahovatpeshalik, birodarlik sifatlarini shakllantirish ham islomiy, ham ijtimoiy masala bo'lib qolmoqda. Chunki kapitalistik munosabatlar insonlardagi bunday sifatlarini yo'qotib, ayyorlik, yolg'onchilik, g'irromlik, nomardlik, pastkashlik kabi illatlarni rivojlantirib yubormoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida inson kapitali va unga bo'lgan talabning ortishi, inson sifatleri narxi va qadr-qimatini ham belgilaydigan vaziyatni shakllantirdi. Bu esa insonlarda yuksak axloqiy sifatlarini yo'q qila boshladi. O'zbekistonda ham kapitalistik munosabatlar jadallashayotgan, bozor munosabatlari real namoyon bo'layotgan sharoitda inson fazilatlarini ham sotilib ketishini oldini olish maqsadida yoshlarni, o'quvchilarni axloqiylik asosida tarbiyalash, xususan, ularda altruistik fazilatlarini shakllantirishni talab qila boshladi.

Yettinchidan, yoshlarda yuksak axloqiylik fazilatlarini shakllantirish, altruistik fazilatlarini shakllantirish orqali ularda ijtimoiy munosabatlarga, vatan taqdiriga dahldorlik tuyg'ularini o'stirish maqsad qilinmoqda. Zero, "fuqarolik jamiyatini qaror toptirish xalqimizning ma'naviy fazilatleri yuksalishiga bog'liq. Biroq globallashuv sharoitida ma'naviyatga qarshi ta'sir qiluvchi ulkan muammo yuzaga kelmoqda. Terrorizm, missionerlik, diniy ekstremizm, "ommaviy madaniyat", gedonizm, eskapizm, daunshifting, loqaydlik, befarqlik, axborot xuruji va oilaning global inqirozi kabi illatlarning paydo bo'layotgani shular jumlasidandir. Ularning barchasiga yoshlar tarbiyasidagi kamchiliklar sabab bo'lmoqda. Fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonida daxldorlik tarbiyasiga yetarli darajada e'tibor qaratilmasligi oqibatida shunday jarayon yuz bermoqda"¹³. Bu orqali yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish va ijtimoiy faolligini rivojlantirish ko'zda tutilmoqda.

Bugungi kunda yurtimizda nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari ochilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad – milliy ta'lim tizimida tanlov huquqini kengaytirish, raqobatni kuchaytirish va ta'limda yangicha yondashuvlarni keng joriy qilish bilan birga rivojlangan davlatlarning tajribasini o'rganish, ommalashtirish, xorijiy davlatlarning ta'lim muhitini yurtimizda shakllantirishdan iboratdir. Zero, buyuk fransuz adibi Viktor Gyugoning "maktab ochgan odam bamisoli qamoqxonani yopgandek bo'ladi", degan fikrlarni bildiradi.

¹³ Shermanov E.U. O'smirlarda islohotlarga daxldorlik fazilatini rivojlantirish. Ped. fan. bo'y. diss. avto. –Samarqand. SamDU. –B. 11.

Dissertatsiyaning **“Tarbiya” fani orqali o‘quvchilarda altruistik fazilatlarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari**” deb nomlangan ikkinchi bobida “Tarbiya” fanining o‘quvchilarda altruistik fazilatlarni rivojlantirish modeli va uni amalga oshirishdagi texnologik yondashuv asoslari hamda ta’limda yuksak axloqiylikni shakllantirishning omillari va tamoyillari tadqiq etilgan.


Bugungi kunda o‘quvchilarda altruistik fazilatlarni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar, interfaol usullar va yangi pedagogik izlanishlardan samarali tarzda foydalanishni zarurati yuzaga kelmoqda. O‘quvchilarda altruistik fazilatlarni shakllantirish inson intellektual, ma’naviy, jismoniy va ruhiy potensialining maqsadli yo‘naltirilishini talab etadi. Shu bois, mazkur tadqiqot ishi doirasida o‘quvchilarda “Tarbiya” fani orqali altruistik fazilatlarni umumiy salohiyat, bilimdonlik, ma’naviy va aqliy yetuklik, ma’naviy va jismoniy barkamolliksiz tarbiyalab bo‘lmasligini asoslashdan iborat.

Dissertatsiyada modellashtirish obyekti sifatida o‘quvchilarda altruistik fazilatlarni va ko‘nikmalarni tarkib toptirish jarayoni, predmetini esa, ularda o‘quvchilarda altruistik fazilatlarni rivojlantirish mazmuni va metodik tizimi tashkil etdi.

O‘quvchilarda altruistik fazilatlarni rivojlantirish ijtimoiy buyurtma sifatida O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi, “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”, Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun “Tarbiya” fani Konsepsiyasi, shuningdek, boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlari orqali belgilab olindi.

Bugungi kapitalistik munosabatlar kuchayib, insoniy munosabatlar ham bozor qonuniyatlari asosida baholanayotgan bir paytda, egoistik sifatlar kuchayib ketayotgan vaziyatda ta’lim tizimiga unga qarshi dunyoqarashni va tafakkur qilish tarzini shakllantirish vazifalari yuksalmoqda. Davlatimiz rahbari fikricha, “bugun ko‘pchilik yoshlar ongini iste’molchilik kayfiyati, Vatan, el-yurt taqdiriga beparvolik, “ommaviy madaniyat” ko‘rinishlari egallab olmoqda. O‘zingiz ayting, o‘z xalqining tarixini ma’naviy va diniy qadriyatlarini hurmat qilmaydigan, ularni himoya qilishga qodir bo‘lmagan odam vatanparvar va elparvar bo‘lishi mumkinmi? Shunday ekan, “Tarbiya” faniga texnologik yondashuv asosida o‘quvchilarda altruistik fazilatlarni rivojlantirish orqali vatan taqdiriga befarq bo‘lmagan, o‘zgalar uchun ham yashaydigan, jo‘mard va fidoyi yoshlarni, kadrlarni tayyorlash muhim vazifalardan biri, ta’limning ma’naviy sohadagi to‘ldirilishi kerak bo‘lgan qismidir.

O‘qituvchi ta’lim jarayonida foydalanish mumkin bo‘lgan, tanqidiy tafakkurni amalga oshiruvchi vositalar xususiyatlarini – kuzatuv, suhbat, refleksiya, mantiq, ko‘nikmalar, shaxsning interpretatsional qobiliyatlari va boshqalarni ko‘rsatib o‘tishi kerak bo‘ladi. Ya’ni ular o‘z uslublariga ko‘ra kuzatuv, suhbat, o‘yinli, treningli, muammoli, refleksiv, media ta’limli, tadqiqotli, o‘qish va yozish orqali tanqidiy tafakkurni rivojlantirish texnologiyalari, rag‘batlantirish va boshqalar bo‘lishi mumkin.



1-rasm. O'quvchilarda altruistik fazilatlarni rivojlantirishning tizimli-funksional modeli

Zamonaviy sharoitda o'quvchilarda altruistik fazilatlarni rivojlantirish samaradorligini oshirishning zaruriy shartlaridan biri – mazkur jarayonni texnologik asosda tashkil etishdir. Ta'lim amaliyotida ta'limiy, pedagogik, tarbiyaviy, o'qitish texnologiyalari ajratib ko'rsatiladi.

O'quvchilarda altruistik fazilatlarni rivojlanishida **“Beg'araz bo'lish”** taktikasi muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchi “Tarbiya” fanini o'rganish jarayonida quyidagi savollarga javob izlaydi: “Yaxshilik nima va u qanday foyda keltiradi?”, “Mehr-muruvvat nima va u nimani talab etadi?”, “Muvaffaqiyatga erishishda mard va oliyjanob bo'lish qanday samara beradi?”, “Xudbinlik bilan baxtli bo'lish mumkinmi?”, “Yordamga muhtoj vaziyatda odamlarga o'z manfaatlaridan kechib yordam berish mumkinmi?” va boshqalar.

Tarbiya fanini sinflararo tizimli o'rganib borish o'quvchilarda altruistik fazilatlarni shakllantirib boradi. Chunki altruistik fazilatlar olijanoblikning yuksak ko'rinishi sifatida o'quvchilardan yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lishni talab etadi. Boshlang'ich sinflardan oq “Tarbiya” fanini aniq va taktik mashg'ulotlar orqali olib borilishi ularda o'zgalarni manfaatini toptamaslik, o'zgalarga yaxshilik qilish, xudbin bo'lmaslikni shakllantiradi.

“Tarbiya” fani o'qituvchisi faoliyatidagi muhim jihatlaridan biri – o'qituvchining o'quvchilarga yaqinligi, ya'ni uning pedagogik taktikani to'g'ri tashkil qila olishidir. Zero, barcha pedagogik natijalar kabi yuksak axloqiy fazilatlarni o'quvchilarda rivojlantirishda ham o'qituvchi o'quvchining eng yaxshi va mehribon ustozini hisoblanadi. Shu yondashuv altruistik fazilatlarni “Tarbiya” fani asosida rivojlantirish jarayonida ham saqlanishi lozim.

“Beg'araz bo'lish” texnologiyasi mazmuni

Bosqichlari	Darajalari			
	Anglash	Tushunish	Munosabat	Fikrlash
